УДК: 633.854.78:631.52

KUNGABOQARNI F_4 DURAGAY AVLODLARIDA OILALAR BO‘YICHA ILDIZ VAZNI VA MAHSULDORLIK BELGILARINING VARIATSION TAHLILLARI

Allamjarova Biybinaz Axmedovna
Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi erkin izlanuvchisi

Aytjanov Baxitjan Uzaqbayevich
Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Moyli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasi mudiri q.x.f.d., professor

Kirish: Kungabaqarning ildizi yaxshi rivojlansa, hosildorligi yuqori bo‘lib, turli biotik va abiotik omillarga bardoshli bo‘ladi. Qoraqalpog‘istonning qurg‘oqchilik sharoitida suv balansi va organlaridagi suv miqdori barqarorligini saqlab turish ildiz vazni belgisi bo‘yicha nazoratida bo‘ladi. Shuning uchun tajribalarimizda kungaboqarni F_4 oddiy va murakkab duragay oilalarning ildiz vazni belgisi bo‘yicha variatsion qatorlar tuzilib matematik tahlil qilindi.

O.R Fayziyev., I.S Salomov [1] larning aytishlaricha kungaboqar yetishtirishda yuqori hosildorlikka erishish va undan katta hajmda daromad va foyda olish uchun eng so‘ngi fan yutuqlaridan foydalanishimiz hamda ilg‘or tajriba xo‘jaliklarimizning innovatsion texnologiyalarini qo‘llash juda zarur ekanligini taqozo etgan.

I.U.Anarbayev [2] va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlari shuni ko‘rsatdiki, ajratib olingan kungaboqar namunalarining unib chiqishidan gullashgacha 45-48 kunni, gullashdan pishishgacha 35-40 kunni tashkil etgan. Shunda kungaboqarning o‘suv davri 80-85 kunga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston sharoitida kungaboqarning ertapishar navlaridan takroriy ekin sifatida bug‘doydan keyin ekilib, o‘rtacha gektariga 12-25 sentner hosil olish mumkinligi keltirib o‘tilgan.

Materiallar va uslublar: Ilmiy tadqiqot ishlari Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Don va sholi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi, Moyli ekinlar selektsiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasida olib borildi. Ilmiy izlanishlar uslubiy asos sifatida qabul qilingan “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” qo‘llanmaga asoslangan holda olib borildi. Ma’lumotlarning statistik tahlili B.A.Dospexovning “Metodika polevogo opita” [3] uslubi bo‘yicha taxlillar hisoblandi.

Natijalar va munozara: Bizning tajribalarimizda esa F_4 oddiy va murakkab duragay oilalarning ildiz vazni belgisi bo‘yicha 9 ta sinflardan (K=10) 100 grammdan 180 grammgacha oralig‘ida bo‘ldi. Oddiy duragay oilalarda asosiy o‘simliklar 4-6 sinflarda 12 o‘cimlikdan F_4 (Tel’s x KK-1), 5 o‘simlikgacha F_4 (S-Al’stor x KK-1) ekanligi, murakkab duragaylarda esa 6-7 F_4 sinflarda joylashganligi, ya’ni o‘rganilgan 3 ta duragaylardan ushbu sinflarda 12 o‘simlikdan F_4 [F_1 (Jant lower x KK-1) x F_1 (Ak-12/95 x KK-1)] va F_4 [F_1 (Sor Gollips x KK-1) x F_1 (Tel’s x KK-1)] oilalari hamda 11 o‘simlikgacha F_4 [F_1 (S-NS-N-2011g x KK-1) x F_1 (S-Al’stor x KK-1)] oilasida o‘simliklar borligi ma’lum bo‘ldi. Tadqiqotlarda o‘rganilgan 6 ta F_4 oddiy duragay oilalardan 110 grammgacha variatsion qatorning chap tomonida 4 tasida o‘simliklar 5,5 foizdan, 6 o‘simlikgacha ajralganligi, murakkab duragaylardan esa oddiy duragaylarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, 120 grammgacha bo‘lgan sinflarda 1 ta kombinatsiyada ham o‘simliklar borligi aniqlandi. F_4 oddiy duragaylar o‘simliklardan ildiz vazni F_4

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

(Tel's x KK-1), F_4 (S-Al'stor x KK-1), F_4 (S-NS-N-2011g x KK-1), F_4 (Ak-12/95 x KK-1) va F_4 (Sor Gollips x KK-1) kombinatsiyalari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib 170 grammdan yuqori bo'lgan o'simliklar boshqa oddiy duragaylarga nisbatan ko'p ajralib chiqdi. Bunda F_4 (S-Al'stor x KK-1) duragayida 170 grammdan yuqori bo'lgan 5 ta o'simliklarni, F_4 (S-NS-N-2011g x KK-1), duragayida esa 6 tani tashkil etdi. F_4 oddiy duragay oilalarda o'zgaruvchanlik koyeffitsiyenti 9,0 foizdan, 12,2 foizni tashkil etdi.

Tajribalarimizda 3 ta F_4 murakkab duragay oilalarda ildiz vazni belgisi bo'yicha oddiy duragaylarga nisbatan yuqori vaznga ega bo'ldi. Bunda murakkab duragaylarda 170-180 gramm ildiz vazniga ega bo'lgan o'simliklar F_4 [F_1 (Sor Gollips x KK-1) x F_1 (Tel's x KK-1)] va F_4 [F_4 (Jant lower x KK-1) x F_4 (Ak-12/95 x KK-1)] kombinatsiyalarida 8-10 foiz hamda F_4 [F_4 (S-NS-N-2011g x KK-1) x F_4 (S-Al'stor x KK-1)] kombinatsiyasida 7,6 foiz ajralganligi namoyon bo'ldi.

Kungaboqarni ildiz vazni belgisining tahlillariga ko'ra 6 ta oddiy duragaylardan F_4 (S-Al'stor x KK-1) va F_4 (Sor Gollips x KK-1) kombinatsiyalari, 3 ta murakkab duragaylardan barcha kombinatsiyalar boshqa oddiy duragaylarga nisbatan yuqori ildiz vazniga ega bo'lib, variatsion qatorning o'ng tomonidagi sinflarda ko'plab o'simliklar mavjud bo'ldi. Kungaboqarni F_4 avlod o'simliklaridan variatsion qatorning chap tomonida joylashgan, ya'ni ildiz vazni oddiy duragaylarda 120 grammgacha, murakkab duragaylarda 130 grammgacha bo'lgan o'simliklar chiqitga chiqazildi hamda ildiz vazni nisbatan yuqori bo'lgan variatsion qatorning o'ng tomonida joylashgan oddiy duragaylarda 140 gramm va undan yuqori, murakkab duragaylarda esa 150 gramm va undan yuqori bo'lgan o'simliklar ajratib olindi. Kungaboqarni F_4 duragay oilalarining o'simliklaridan vegetatsiya davri qisqa, o'simlik bo'yi nisbatan past, serbarg va ildiz sistemasi yaxshi rivojlanib, vazni yuqori bo'lgan oilalar tanlab boshqa qimmatli xo'jalik belgilarini tahlillari asosida asosiy belgilari mujassamlashgan yangi oila va tizmalar yaratish uchun ajratib olindi.

Ma'lumki, dunyoda eng ko'p kungaboqar yetishtiruvchi davlatlar Ukraina, Rossiya, Argentina, Ruminiya va Xitoy yetakchilik qilib kelmoqda. Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda kungaboqar ekin maydoni ortib 18,0 ming gektarga yaqin va o'rtacha hosildorlik 12-15 ts/gani tashkil etmoqda. Selektsionerlar tomonidan yaratilayotgan yangi kungaboqar navlarida vegetatsiya davri, hosildorligi, moydorligi kabi belgilar asosiy belgilardan hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini hosildorligi yuqori bo'lishini asosi bir tup o'simlikdan olinadigan hosilga bog'liqdir. Shuning uchun kungaboqar o'simligida ham bir tup o'simlikdagi mahsuldorlik muhim belgilardan biridir. 2024 yilda olib borilgan tadqiqotlarda kungaboqarni F_4 oddiy va murakkab duragay oilalarni bir tup o'simlikdagi mahsuldorlik belgisi tahlil qilindi. F_4 duragay oilalarni mahsuldorligi bo'yicha variatsion qator 9 sinflarga (K=10) uchradi. Bir tup o'simlikdagi mahsuldorlik bo'yicha 55 grammdan, 135 grammgacha bo'lgan o'simliklar uchradi. F_4 oddiy duragay oilalar soni 32-37 tani, murakkab duragaylarda esa 33-34 tani tashkil yetib, murakkab duragay oilalar bir tup o'simlikdagi mahsuldorligi oddiy duragaylarga nisbatan yuqori bo'lgan o'simliklar borligi kuzatildi. Bir tup o'simlik mahsuldorligi o'rganilgan 6 ta F_4oddiy duragay oilalarda o'rtacha 87,5 grammdan F_4 (Tel's x KK-1), 98,5 grammgacha F_4 (S-Al'stor x KK-1) bo'lib, asosiy o'simliklar 4-6 sinflarda joylashdi. Bunda ushbu sinflarda 12 ta o'simlik oralig'ida uchradi F_4 oddiy duragay oilalarda mahsuldorlik bo'yicha eng yuqori, ya'ni 125 gramm va undan yuqori 2 ta duragaylarda, 11 ta o'simlikdan borligi aniqlandi. Bir tup o'simlikdagi mahsuldorligi nisbatan past 65 grammgacha bo'lgan kombinatsiyalar 5 ta o'simlik oralig'ida bo'ldi. Kungaboqarni F_4 oddiy duragay oilalaridagi

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

mahsuldor belgisi bo‘yicha o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti 16,9 foizdan 21,3 foizgacha oralig‘ini tashkil etdi.

Tajribalarda o‘rganilgan 3 ta murakkab F_4 duragay oilalarda bir tup o‘simlik mahsuldorlik belgisi bo‘yicha aksariyat o‘simliklar 5-7 sinflarda ya’ni 12 o‘simlikdan 10 o‘simlik oralig‘ida bo‘ldi. Ushbu belgi bo‘yicha 125 grammdan yuqori bo‘lgan oilalar F_4 [F_1 (Jant lower x KK-1) x F_1 (Ak-12/95 x KK-1)] kombinatsiyasida 10 ta oila, F_4 [F_1 (Sor Gollips x KK-1) x F_1 (Tel’s x KK-1)] kombinatsiyasida 7 ta oila ekanligi aniqlandi. Bir tup o‘simlikdagi mahsuldorlik belgisi bo‘yicha transgressiv oilalar oddiy duragay oilalarga nisbatan murakkab duragay oilalarda ajralib chiqishi yuqori bo‘ldi. F_4 murakkab duragay oilalarda o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti 13,2-16,0 % oralig‘ida joylashdi.

Xulosa va tavsiyalar: Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, tadqiqotlarda bir tup o‘simlik mahsuldorligi bo‘yicha o‘rganilgan 6 ta oddiy duragay oilalardan 19 tasi va 3 ta murakkab duragay oilalardan ham 22 tasi o‘rganilgan boshqa oddiy va murakkab duragay oilalarga nisbatan ijobiy holatda bo‘ldi. Tajribalar natijalari asosida o‘simlik mahsuldorligi bo‘yicha variatsion qatorning o‘ng tomonida joylashgan, ya’ni 115 grammdan yuqori, vegetatsiya davri qisqa, serbarg va ildiz tizimi yaxshi rivojlangan kombinaiyalardagi oilalarni o‘simliklari boshqa asosiy qimmatli xo‘jalik belgilari yuqori bo‘lgan yangi boshlang‘ich ashyolarni yaratish maqsadida tanlab olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Fayziyev O.R., Salomov I.S Iqtisodiyotni rivojlantirishda moyli ekinlarning o‘rni. // O‘zbekistonda moyli va tolali ekinlarni yetishtirish hamda ularning mahsuldorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. Toshkent, 2011. B. 41-42.
2. Anarbayev I.U. Respublikamizda moyli ekinlarni yetishtirish istiqbollari. // O‘zbekistonda moyli va tolali ekinlarni yetishtirish hamda ularning mahsuldorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya ma’ruzalari asosidagi maqolalar to‘plami. Toshkent. 2011. B. 7-8.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: “Агропромиздат”, 1985. С. 251.

© 2026Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.